



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

БУХОРО МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИНинг ТАРИХИЙ-НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ

Халқаро илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ



19-oktabr 2021-yil

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ БУХОРО ДАВЛАТ
УНИВЕРСИТЕТИ

МУСИҚА ТАЪЛИМИ КАФЕДРАСИ

**БУХОРО МУСИҚА
ФОЛЬКЛОРИНИНГ ТАРИХИЙ-
НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ
МАСАЛАЛАРИ**

мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

19 октябрь

Бухоро - 2021

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни, “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури”, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февральдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикаси янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори 31.05.2017й. ПҚ-3022 маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантириш ва такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Халқаро бахшичилик санъати фестивалини ўтказиш тўғрисида"ги 2018 йил 1 ноябрдаги ПҚ-3990-сон қарорига мувофиқ **2021-йил “Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва ахоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили”**га бағишланган 2021 йил 19 октябрь куни Бухоро давлат университетида **“Бухоро мусиқа фольклорининг тарихий- назарий ва амалий масалалари”** мавзусида илмий-назарий анжуман ўтказилмоқда.

Анжуманинг мақсади-миллий, маданий ва маънавий меросимизни асраб-авайлаш ва бойитиш, ўзбек мусиқа фольклорини жумладан, Бухоро мавриги ва тароналарини янада ривожлантириш, ёшларнинг маънавий-ахлоқий ва маданий даражасини янада оширишни рағбатлантириш, миллий ва жаҳон маданиятининг энг яхши намуналари билан таништириш, ёшлар онги ва қалбида мустақиллик гоясига, юқори маънавият ва инсонпарварлик анъаналарига садоқат туйғуларининг янада чукур илдиз отиши, эстетик ва маданий эҳтиёжларни таъминлашга йўналтирилган маданий-оммавий тадбирлар ўтказиш, ижодкор ёшларга ҳар томонлама кўмаклашиш, маънан етук, интеллектуал ривожланган ва юқори маданиятли шахсларни тарбиялаш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш ҳамда Республикада ушбу соҳада эришилган илмий натижаларни амалиётга татбиқ қилиш.

Масъул муҳаррир:
Б.Х.Мадримов – педагогика фанлари номзоди,
профессор.

Тақризчилар:
Б.Мустафоев – педагогика фанлари номзоди, доцент
А.Р.Ҳамроев – педагогика фанлари номзоди, доцент

Тўпламга киритилган мақола ва тезислар мазмуни, илмийлиги ва далилларнинг ҳаққонийлиги учун муаллифлар масъулдирлар.

ИЛМИЙ АНЖУМАННИНГ ДАСТУРИЙ ҚҮМІТАСИ

- | | |
|-----------------|---|
| 1. О.Х.Хамидов | - Университет ректори, раис; |
| 2. О.С.Қаххоров | - Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис ўринбосари; |
| 3. С.С.Азимов | - Санъатшунослик факультети декани, п.ф.ф.д. (PhD), доцент, аъзо; |
| 4. Т.И.Ражабов | - Мусиқа таълими кафедраси мудири, п.ф.ф.д. (PhD) доцент, аъзо; |
| 5. Б.Х.Мадримов | - Мусиқа таълими кафедраси профессори, п.фн., аъзо |
| 6. С.Д.Дўстов | - Мусиқа таълими кафедраси профессори, п.ф.н., аъзо; |
| 7. Д.Ю.Рузиев | - Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси п.ф.н. доцент, аъзо; |
| 8. У.М.Миршаев | - Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси, котиб; |

ИЛМИЙ АНЖУМАННИНГ ТАШКИЛИЙ ҚҮМІТАСИ

- | | |
|-------------------|---|
| 1. О.С. Қаххоров | - Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис; |
| 2. С.С.Азимов | - Санъатшунослик факультети декани, раис ўринбосари; |
| 3. Т.И.Ражабов | - Мусиқа таълими кафедраси мудири, п.ф.ф.д. (PhD) аъзо; |
| 4. Б.Х.Мадримов | - Мусиқа таълими кафедраси профессори, п.фн., аъзо |
| 5. Ф.Г.Нуруллаев | - Мусиқа таълими кафедраси доценти, аъзо |
| 6. И.А.Кўشاев | - Мусиқа таълими кафедраси аъзо катта ўқитувчиси, |
| 7. У.М.Миршаев | - Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси, котиб |
| 8. Т.Дж.Мухамедов | - Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси, аъзо |

yo‘nalishi bo‘yicha musiqiy ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini uchun ta’lim asoslari shakllandi.

Xalq cholg‘ularida ijrochilik usuliyotini takomillashtirishni quyidagi asosiy bosqichlargabo‘lish mumkin:

1.Zamonaviy umumiy va musiqiy pedagogika, psixologiya va didaktika masalalarini chuqur o‘rganish.

2.Maxsus usuliyotlar natijalarini, dars berish tajribalarini o‘rganish va umumlashtirish.

3. Oldingi maktablar hamda yo‘nalishlarni tanqidiy tahlil qilish, buning natijasida zamonaviy ta’lim rivoji tamoyillarini ishlab chiqish.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib holda shuni ta’kidlashimiz kerakki, bugungi kunda zamonaviy talablarga javob beruvchi o‘zbek xalq cholg‘ularini o‘qitish usuliyotini, ta’limning har bir bosqichiga (boshlang‘ich, o‘rta, oliv) alohida, o‘ziga xos ravishda yondashib, kelajakda yangi avlod adabiyotlarini yaratgan holdagina kasbiy tayyorgarlikning sifatini ta’minlashimiz mumkin. Birinchi navbatda musiqiy maktablar, ixtisoslashgan san’at maktablari va oliv o‘quv yurtlari uchun zamonaviy talablarga javob beruvchi o‘quv dasturlarini yaratish va ijrochilik san’ati madaniyatini yuqori saviyada tarbiyalash masalalarini hal etishimiz lozim bo‘ladi.¹

Adabiyotlar

1.S.B.Saidiy. Cholg‘ushunoslik va cholg‘ulashtirish asoslari.-Darsligi. “Musiqa” nashriyoti. Toshkent- 2016.

2.S.B.Saidiy. O‘zbek xalq cholg‘ulari uchun partitura va klavirlar. “Musiqa” nashriyoti. Toshkent- 2015.

3.M.A.Ilxomov. Cholg‘u ijrochiligi. ”Mehnat nashriyoti”, T., 2010.

4.X.Nurmatov.O.Fayziev. “Cholg‘u ijrochiligi rubob” o‘quv qo‘llanma T.2009.

5.Sh.Rahimov. X. Nurmatov. “Cholg‘u ijrochiligi tarixi” o‘quv qo‘llanma. T.2009.

6.X.Nurmatov. “Rubob darsligi”. Toshkent. O‘qituvchi nashriyoti. 1993.

7.Karimov O.I., O‘quv qo‘llanma “Cholg‘u ijrochiligi va ansambl” Buxoro- 2019y.

8. A.I.Petrosyans, Instrumentoveayeniye (Uzbekskiye narodnye instrumenti)
Toshkent- 1980.

O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARINI O‘RGANISHDA HOFIZLIK SAN’ATI Raxmatova M.O., BuxDU Musiqa ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTASIYA: Musiqa san’ati insoniyatning ma’naviy boyligi, estetik dunyoqarashi va kelajak kamolotining belgilovchi mezonlardan biri sifatida ardoqlanib keladi. Unda har bir xalqning milliy an’analari, urf-odatlari, marosim va qadriyatlari munosib o‘rin olgan. Yo‘nalishlar qatorida hofizlik san’ati eng qadimiysi, amaliy tajribada pishgan va amaliyot jarayonida mukammallikka erishgan tarmoqlardan biri sifatida shakllangan. Hofizlik musiqa san’atining barcha tarmoqlariga birdek ta’sir etadigan hamda bir me’yorda va ibrat bo‘ladigan xususiyatlar bilan sug‘orilgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak hofizlik san’ati sertarmoq, tartibli, tarkibli, muayyan qonuniyatlarga asoslangan va, albatta o‘ziga xos ananalarini yuzaga keltirgan soha desak, adashmagan

¹ Karimov O.I., O‘quv qo‘llanma “Cholg‘u ijrochiligi va ansambl” Buxoro- 2019y. 18 6er

bo‘lamiz. Bularning barchasini shakllanib rivojlanishi esa, musiqaning kuchini, sehrini namoyon etuvchi “Ijrochilik”, ya’ni musiqa ohanglari jonli jarayonining natijasidir.

Kalit so’zlar: san’at, talqin, hofiz, o‘zbek, musiqa, san’at, xonandalik, soha, yo‘nalish, folklor, aytimlar, doston, ijrochilik, marosim.

Ijrochilikning ana shunday asosiy qonunlari xonandalik, cholg‘uchilik (sozandalik) hamda raqs yo‘nalishlarida namoyon bo‘ladi. Ularning har biri alohida va shu bilan birga uyg‘unlashgan holda xalk ijrochilik amaliyotida shakllangan va rivojlangan. Pirovardida, san’at deb atalmish ma’naviyatimizning sirli, badiiy, ruhiy va jozibali jihatlarini namoyish etuvchi turlari sifatida muhrlangan. Qayd etish joizki, ijrochilikda doimo uch jihat mushtarak rivojlangan: ijod, talqin va tinglovchilar bilan ruhiy (psixologik) bog‘lanish. Ijro saviyasi ana shu jihatlarining mutanosibligiga bevosita bog‘liqdir. Ijrochining mas’uliyati mahorat va talqin kabi unsurlardan, eshituvchining holati esa, uning tajriba va ko‘nikmalaridan kelib chiqadi. Demak, ijrochining asosiy vazifasi kuy va aytimlarni latif va zarif shakllarda ijro etish va shu bilan tinglovchilarga ta’sir o‘tkazishdir.

Biz bilamizki, tovush bu-zohiriyo ko‘rinish. Unga turli vosita va harakatlar bilan erishiladi. Eng muhimi, tovushning chiroqli, go‘zal, ma’noli hamda dardli tarannum etilishidadir. Bu esa ijrochilikning negizida turgan asosiy mohiyati hisoblanadi. Uzbek musiqa ijrochiligida eng mahoratlari, bilimli va ilmli xonandalar hamda ovoz yordamida talqin etuvchilarni “hofiz” deb atash rasm bo‘lgan. Hofizlikning turlari va shunga xos tarixiy ma’lumotlar o‘tmish allomalarining yozma manba’larida o‘z ifodasini topgan.

O‘zbek musiqa san’atida xonandalik, o‘z sohasi va yo‘nalishidan kelib chiqib turli sharoitlarga moslashgan holda shakllanib, rivojlanib kelgan. Oddiy folklor aytimlari, doston ijrochiligi, turli marosim aytimlari, zamonaviy akademik(vokal) va estrada xonandaligi, mumtoz xonandalik shular qatoriga kiradi. Har bir yo‘nalish shakl va ijrochilik nuqtai nazaridan o‘z uslubi, qonun-qoidalari va shaklu-shamoillariga egadir. Ular orasida klassik xususiyatlar doirasida shakllangan va eng mukammal an’analarni o‘zida aks ettirgan an’anaviy yo‘nalish o‘zining barcha xususiyati, nufuzi va salohiyati bilan ibrat bo‘lib kelmoqda. Amaliyotda, ya’ni mumtoz musiqa xonandaligida, azaldan, o‘zbek xalqining eng go‘zal urf-odatlari, milliy ruhiyati bilan bog‘liq qadriyatlari yuzaga kelib, xalqning boy ma’naviyatini in’ikos ettirib kelgan. Shu bois bo‘lsa kerak, xonandalik an’anasida mumtoz aytim yo‘nalishlari va uslublari shakllanib borgan. Buni amaliyotda an’anaviy xonandalik (mumtoz ashulachilik va mumtoz qo‘sishchilik) san’ati yo‘nalishlari sifatida yuritish odat tusiga aylandi. Milliy mumtoz ashulachilik an’analari o‘zbek an’anaviy xonandalik san’atining asosi bo‘lib rivojlandi. Bizning davrga kelib, xonandalikning eng mahoratlari va bilimli darajasini, “hofizlik san’ati” deb yuritish odat bo‘ldi. Hofizlik san’ati an’anaviy xonandalikning ibratli namunasi sifatida amaliyotda qo‘llanila boshlandi. Eng nufuzli an’anaviy xonanda namoyandalariga esa “Xalq hofizi” faxriy unvoni berish ta’sis etildi.

Hofizlik san’ati xonandalikning eng yuqori darajasi sifatida bir qator talab, bilim hamda amaliy unsurlarni o‘zida mujassam etadi. Albatta birlamchi jarayon bu – ovozdir. Ovoz ham ko‘pjihatli ekanligini unutmaslik lozim. Ikkinci jarayonni saboq bilan bog‘lash mumkin. Uning natijasida bilim, ya’ni hofizlik xonish Bilan bog‘liq ilm darajasi namoyon bo‘lishi lozim. Ya’ni, ijro mahorati, so‘z talaffuzi, ohang tarannumi, meros va ijodiy munosabat. Buning zaminida esa o‘zbek amaliy san’atida eng muhim hisoblangan omil ustoz-shogird an’anasi yotadi. Ushbu an’ana mumtoz san’at rivojining garovi

sifatida azal-azaldan xalqimiz amaliyotida katta ahamiyat kasb etib kelgan. Ustoz-shogird an'anasi negizi esa, ilm o'rganish demakdir va unda bir qator saboq mezonlarini o'tash taqozo etiladi.

Jumladan: - xonandalik san'ati; - ijrochilik san'ati; ovoz imkoniyatlari va talqini bilan bog'liq qonuniyatlar; matn hamda talaffuz masalalari; so'z va ohang; - ijo madaniyati; - repertuar tanlash asoslari. Hofizlik san'atining ushbu jihatlari o'tmishdan xonandalar ijrochilik an'analarida shakllangan va mukammal talqin uchun zarur bo'lgan iste'dod, saboq va mahoratlarining amaliyotda sinalgan mezonlariga aylangandir. Shu bois bo'lsa kerak, hofizlik musiqa san'ati, azaldan ijrochilikning mavjud barcha sohalarida ibratli tarmoq ekanligini namoyon etib kelgan.

Xulosa qilib aytganda odatga ko'ra, ovoz talqini bilan bog'liq san'at ijrochiligining zamini bir bo'lsa kerak. Faqat uni to'g'ri idroklash hamda mahorat bilan kuylash juda muhimdir. Zero, shiddat bilan, qalb sadolarini qo'shib, mungli, tarovatli, dardli hamda jozibali kuylash oqibatida har qanday yo'nalish talqini zafar topishi muqarrar. Yurak-qalb bilan ulanmagan ijro borki his-hayajon va dardli ohang tarannum etishga qodir emas.

Adabiyotlar

1. H.Nurmatov, O. Ibrohimov, A.Mansurov va boshqalar.1-7 sinflar musiqa darsliklari. T. 1999, 2000, 2001, 2002, 2003, 2007, 2008 y.
- 2.Gulnora Sharipova.Musiqa o'qitish metodikasi. Ma'ruzalar matni. Toshkent. Nizomiy TDPU. 2000.
3. N.Hamroqulov An'anaviy ijrochilik va maqom asoslari. Ma'ruzalar matni.. SamDU 2005.
- 4.S.H. Yo'ldosheva. O'zbekistonda musiqa ta'lim-tarbiyasining rivojlanishi. T. «O'qituvchi» 1985.
- 5.YU.Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi. 1-5 qismlar.

AN'ANAVIY XONANDALIK IJROCHILIGIDA OVOZ TANLASH VA TARBIYALASH

Ramazonova O'.X., BuxDU Musiqa ta'limi kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTASIYA: An'anaviy ijrochiligidan gultoji- maqomlar va ular asosida yaratilgan xalq ashulalari, bastakorlar asarlarini o'rta maxsus va Oliy o'quv yaratishdargohlarida ta'lim olayotgan yosh avlodga o'rgatish, aniqrog'i, ularning tafakkuri, ongiga singdirish kundan-kunga dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Xususan, an'anaviy xonandalik fanini o'qitish zamirida mumtoz ashulalarning talaba ruhiga ta'siri, ularda paydo qiladigan fikriy o'zgarishlar va etik-estetik rivojlanishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: Xotira, zehn, iqtidor, uzoq, tajriba, ovoz, an'anaviy, xonandalik, mos, ijo, mumtoz, ashulachilikka

Ta'kidlash kerakki, kuydan ko'ra ashulani tushunish, idrok etish ancha oson kechadi. Buning sababi, ashulada ham badiiy, ham musiqiy matn mavjud. Kuya esaqaqt musiqiy matn bor bo'lib, uni talaba his etishi, hamda ana shu hissiyot asnosida tasavvur qilishi, idrok etishi mumkin. Ammo bu tushunchalaru tasavvurlarni so'zda ifodalash baxti har kimga ham nasib etavermaydi. Ashulani tushunishda undagi ohanglariga qo'yilgan she'riy matnlari, ilk qadar talabaga yordam beradi. Shu bois, aksar talabalar

балетном пространстве	
С. В. Богдан. Смехотерапия как универсальная технология социально-культурной деятельности в воспитании базовой культуры подростков	73
Аксёнова М. В., Тарасова Ю. Б. Образовательные программы русской православной церкви как средство сохранения традиционной культуры России	79
Д.Реймов. Эмпатия как условие организации процесса обучения игре на скрипке в младшей возрастной группе	82
O'rino A.A. Musiqiy faoliyatlarning badiiy-estetik xususiyatlari	85
Муродов М.Қ. Ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг вазифалари	88
Qayumov I.F. Yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksalib borishida san'atning tutgan o'rni	91
Umurova M.Yo. O'yin bola tarbiyasining muhim vositasi	93
Shamsiyev Sh.I Iqtidorli o'quvchilarning musiqiy ijodkorlik faoliyati	96
Хомидов Ҳ.К. Талабаларда ватанга садоқат ғоясини шакллантиришнинг асосий мезонлари	98
Д.З.Ражабов. Халқ қўшиқларида композиция муаммоси	101
Моянов Йқласбай Жийенбаевич. Қорақалпок фольклор санъатининг ёшлар маънавий -ахлоқий тарбиясига таъсири	103
Raximov Abdurasul Ravshan o'g'li. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda musiqa va qo'shiqchilik san'ati	106
X.Axrarov. Bolalar tafakkurini rivojlantirishda musiqa fanining o'rni	107
Бобуршоҳ Нуруллаев. Ўзбек халқ қўшиқлари – бадиий тушунчани ўстирувчи восита	110
Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев, С.Б. Сайдий. Узлуксиз таълим тизимида Бухоро фольклор қўшиқларини ўргатишнинг ўрни ва аҳамияти	112
Munisa Uzakova. Adabiyot va musiqa fanlarini o'qitishda integratsiya	117
4-ШЎЬБА. ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ - ХАЛҚИМИЗНИНГ БЕҚИЁС МАЪНАВИЙ МЕРОСИ	
Norova Sh.U. Xalq musiqa ijodini o'rganishda xalq qo'shiqlarining o'mi	120
Qo'shayev I.A O'zbek xalq musiqa ijodi	122
Qurbanov J.J. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning qo'shiq aytish malakalarini ostirish	123
Karimov O.I. Xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti	125
Raxmatova M.O. O'zbek xalq qo'shiqlarini o'rganishda hofizlik san'ati	127
Ramazonova O'.X. An'anaviy xonandalik ijrochiligidagi ovoz tanlash va tarbiyalash	129
Rahmonova I.M. O'quvchilarda estetik didni tarbiyalashda qo'shiqlarning o'rni	131
Gulov Sadritdin Niyozovich. Umumta'lim maktablarida "musiqa madaniyati darslari"ning mohiyati	133
Ибодова Севарабону. Умумий ўрта таълим мактабларида халқ қўшиқларининг тарбиявий аҳамияти	135
Ibodov O'.R. Musiqa madaniyati darslarida xalq qo'shiqlaridan foydalanish	139
Axrorov X.X. Shaxsni tarbiyalash va shakllantirishda musiqaning o'rni	141
Давлатназар Юсупов. Ўзбек баҳшичилик санъатининг ривожи ва ёшлар	143